



NAMANGAN VILOYATI KOSONSOY TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2026-yil 30-yanvar

13-6-80-F/26

Kosonsoy tuman hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2026 yil 20 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori va masalaga oid qonunchilik hujjatlari ijrosini tumanda samarali ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, murojaatlarni amaldagi qonunlar asosida ko‘rib chiqilishi va hal etilishini, shuningdek ularni rahbarlar tomonidan qabul qilinishini tartibga solish, davlat idoralari va mahalliy hokimliklarda bu sohadagi ishlarni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi 16-6-0-F/26-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida,

1. Namangan viloyati hokimining 2026 yil 20 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 maydagi 341-son qarori va masalaga oid qonunchilik hujjatlari ijrosini tumanda samarali ta‘minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, murojaatlarni amaldagi qonunlar asosida ko‘rib chiqilishi va hal etilishini, shuningdek ularni rahbarlar tomonidan qabul qilinishini tartibga solish, davlat idoralari va mahalliy hokimliklarda bu sohadagi ishlarni yanada kuchaytirish to‘g‘risida”gi 16-6-0-F/26-sonli farmoyishi ijro uchu qabul qilinsin va O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunning so‘zsiz ijrosini ta‘minlash tumandagi har bir idora, xo‘jalik birlashmalari va tashkilot rahbarlarining ustuvor vazifalaridan biri ekanligi qayd etilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Toshpulatov)ga tuman hokimligida murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalarini muntazam tahlil etib borish, murojaatlarni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha aniqlangan kamchilik va Qonun buzilishi holatlari sabablarini aniqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish maqsadida murojaatlar bilan ishlashni nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimi va uning o‘rinbosarlari tomonidan 2026 yil davomida jismoniy va yuridik shaxslarning qabul qilish jadvallari 1 va 2- ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, tuman hokimining sohalar bo'yicha o'rinbosarlari hamda guruh rahbarlari tuman hokimligida jismoniy va yuridik shaxslarning qabullarini o'z muddatida, shaxsan o'tkazishga va ijrosini nazorat qilishga mas'ul ekanligi belgilansin.

4. Barcha guruh rahbarlari va kotibiyat mudirlariga:

O'z komplekslariga doir kelib tushgan murojaatlarning muddatida ko'rib chiqilishi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshirish; ularning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini ta'minlash choralarini ko'rish; har bir kelib tushgan murojaat uchun alohida yig'ma jildlar yuritish; yig'ma jildda murojaatni o'rganishga daxldor to'plangan mahlumotlar (nazorat varaqasi, murojaat, ilova hujjatlar, zarur hollarda murojaatga aloqador qaror nusxalari, ma'lumotnomalar, chizmalar, fotolavhalar va boshqa tegishli hujjatlar, o'rganish dalolatnomasi, murojaat muallifiga yuborilgan javob xati, tegishliligiga ko'ra yuborilib, natijasi haqida ma'lum qilish, so'ralgan idoraga yuborilgan aloqa xati, nazoratdan chiqarishga oid axborot) jamlangan holda tuman hokimligining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha ijro apparatiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

hafta davomida tuman hokimining o'rinbosarlari tomonidan o'tkazilgan qabullar va ularning natijalari to'g'risidagi axborotlarni haftaning juma kunlari tuman hokimligining Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha ijro apparatiga doimiy taqdim etib borish;

5. Tuman hokimligining Devonxonasi (A.SHaripov) hamda Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha (O.Qambarov): tuman hokimligiga kelib tushayotgan murojaatlarni Qonunda belgilangan muddatlarda to'liq va batafsil ko'rib chiqish, belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi ustidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshirish; kamchiliklar va muddat buzilish holatlari aniqlangan taqdirda tuman hokimi muhokamasiga tezkor ma'lumotlar kiritib borish; tahlil natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan javobgarlik choralarini ko'rish yuzasidan takliflar kiritib borish;

korxonalar, tashkilot va muassasalarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha olib borilayotgan ishlar monitoringini yuritish va har chorak yakuni bilan tuman hokimiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

6. Tuman hokimining 2025 yil 15 yanvardagi 7-6-80-F/25-son farmoyishi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Ushbu farmoyishning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining sohalar bo'yicha barcha o'rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



D.Kadirov

**Kosonsoy tuman hokimi va uning o'rinbosarlari tomonidan
2026 yilda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish**

J A D V A L I

№	Familiyasi, ismi otasining ismi	Lavozimi	Fuqarolarni qabul qilish kunlari	Qabul qilish soatlari
1	Kadirov Dilmurod Gafurovich	Tuman hokimi	Har haftaning Seshanba kuni	Soat 10-00 dan 13-00 gacha
2	Toshpulatov Elmurod Gafurjonovich	Kosonsoy tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari - Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i	Har haftaning Juma kuni	Soat 10-00 dan 13-00 gacha
3	Xudoyberdiev Abduraufjon Abdulbokiyeovich	Kosonsoy tuman xokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari	Har haftaning CHorshanba kuni	Soat 10-00 dan 13-00 gacha
4	SHodibekov G'olibjon Umarjonovich	Kosonsoy tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari-tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i	Har haftaning Payshanba kuni	Soat 10-00 dan 13-00 gacha
5	Soibboyev Muzaffar Chulponboyevich	Kosonsoy tuman xokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Har haftaning Dushanba kuni	Soat 14-00 dan 17-00 gacha

Izox: Tuman hokimi va uning o'rinbosarlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, jadvalda belgilangan kun va vaqtlarda o'tkaziladi. Ish kunining kabul soatlaridan tashqari vaktida shu kungi kabulga mas'ul bo'lgan hokim o'rinbosarlarining tegishli bo'lim raxbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Kosonsoy tumani hokimining
2026-yil 30-yanvardagi
13-6-80-F/26-son farmoyishiga
2-ilova

**Kosonsoy tumani hokimi va o'rinbosarlari tomonidan 2026 yilda
jismoniy va yuridik shaxslarni joylarda sayyor qabul qilish**

J A D V A L I

№	F.I.O.	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr
1	D.Kadirov	Gulobod MFY	Tagijar MFY	Bahoriston MFY	Yoshlik MFY	O'zbekiston MFY	Xonqo'rg'on MFY	Obod MFY	Uchqo'rg'on MFY	Yangi yo'l MFY	Istiqlol MFY	CHak MFY	Ravot MFY
2	E.Toshpulatov	Zamondosh MFY	Nurafshon MFY	Do'stlik MFY	Gulobod MFY	Shayxon MFY	Yangi shahar MFY	Olmazor MFY	Namuna MFY	Fayzobod MFY	Buloqbohi MFY	Chorbog' MFY	S.Sheroziy MFY
3	A.Xudoyberdiev	Navbahor-1 MFY	Obodon MFY	Bog'i baland MFY	O'rta ko'cha MFY	O'rikzor MFY	Movorounahr MFY	Bo'ston MFY	A.Jomiy MFY	Guliston-1 MFY	Navro'z MFY	Chust ko'cha MFY	Soycha MFY
4	G'.Shodibekov	Soy bo'yi MFY	Gulbog' MFY	Qorasuv MFY	Yangi O'zbekiston MFY	Taxtako'prik MFY	O'zbekiston MFY	Guzar MFY	Shirinbuloq MFY	Ravot MFY	Yangi yo'l MFY	Ququmboy MFY	Tagijar MFY
5	M.Soibboyev	Yuksalish MFY	Guzar MFY	M.A'zam MFY	Bog' ko'cha MFY	Fayzobod MFY	Bog' MFY	Iftixor MFY	O'zunqishloq MFY	Majnunto1 MFY	Taxtako'prik MFY	Zamondosh MFY	O'zbekiston MFY

Izoh: Tuman hokimi tomonidan joylarda o'tkaziladigan fuqarolar qabuli tuman hokimligining Devonxona bo'linmasi hamda Murojaatlar bilan ishlash bo'limi tomonidan xar oyning to'rtinchi haftasida, hokim o'rinbosarlarining joylardagi qabuli o'z bo'limlari tomonidan tashkil etiladi. Qabul ertalab soat 10-00 dan 13-00 ga qadar o'tkaziladi.